SUD-XATSHUNOSLIK EKSPERTIZALARINI O‘TKAZISHDA HAL ETILADIGAN VAZIFALAR

S.F.Qarshiyev
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymononova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi
Navoiy viloyat bo‘limi eksperti, 3-darajali yurist

Ekspert-xatshunos tomonidan hal etiladigan vazifalar quyidagi 3 ta asosiy guruhga bo‘linadi: identifikatsion, diagnostik va klassifikatsion.

Identifiatsion vazifalar: qo‘lyozma matn va imzo ijrochisini hamda turli matnlar, matnning alohida lavhalari, imzolar, matn va imzolarning aynan bir shaxs tomonidan bajarilganligini aniqlash.

Sud-xatshunoslik tadqiqotlarini o‘tkazishda identifikatsion vazifalar asosiy ish hajmini tashkil qiladi. Ularni hal qilinishi quyidagi holat (fakt)ni aniqlashni nazarda tutadi: - individual identifikatsiya: aniq ijrochining aynanligi mavjudligi yoki yo‘qligi; turli matnlar, imzolar, matnlarning aohida lavhalri, matn va qisqa yozuvlarni (masalan,qo‘shib yozishlar), matn va imzolarni aynan bir shaxs yoki turli shaxslar tomonidan bajarilganligi; - qo‘lyozma matnni bajargan shaxsning guruhiy mansubligi (yozuvning ishlov darajasi, harakatlar tizimining takomillashganlik darajasi, dastxatning boshqa mumiy belgilari).

Ekspert-xatshunos oldiga qo‘yiladigan va eng keng tarqalgan vazifalardan biri qo‘lyozma matn yoki imzo ijrochisini identifikatsiya qilish hisoblanadi. Qo‘lyozma matn yoki imzo ijrochisini identifikatsiya qilish zarurati sud va tergov organlari xodimlarida yozma yoki ashyoviy dalillarni o‘rganishda, xususan, yozuvning mazmuni muayyan bir holatni (masalan, haqoratlash) aniqlashda vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda ekspertiza xulosasi ish bo‘yicha isbotlov holatini aniqlash vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ayrim hollarda matn ijrochisini aniqlash – orasidan ayblanuvchi qidirilishi lozim bo‘lgan shaxslar doirasini belgilab berishi mumkin.

Identifikatsion tadqiqotlarning alohida guruhini turli matnlar, matndagi alohida lavhalar, imzolar, matn va imzolarni aynan bir shaxs tomonidan ijro etilganligini (bajarilgan) aniqlash tashkil etadi. Agar ayblanuvchi ko‘rilayotgan ish bo‘yicha ashyoviy dalil sifatida hisoblangan va muayyan bir holatni tasdiqlovchi hujjatlardan birini bajarganligini tan olgan bo‘lsa-yu, biroq boshqa hujjatlarni bajarganligini tan olmasa, tergovchida ishning mohiyatiga ko‘ra, bu boshqa hujjatlarni ham aynan shu shaxs tomonidan bajarilganligiga asosli shubha tug‘iladi hamda bu holda tergovchi sud xatshunoslik ekspertizasini tayinlaydi. Bu holda ekspertlar oldiga hal qilish uchun tekshirilayotgan har ikki hujjat aynan bir shaxs tomonidan bajarilganligi bo‘yicha savol qo‘yiladi hamda birinchi hujjat ayblanuvchi shaxs dastxatining namunasi sifatida foydalaniladi.

Diagnostik vazifalarning hal etilishi tekshirilayotgan qo‘lyozma matn bajarilgan sharoitlarni – oddiy yoki g‘ayri oddiy – aniqlashga qaratilgan.

Klassifikatsion vazifalarning hal etilishi matn yoki imzo ijrochisining qaysi guruh mansubligiga kiritish ya’ni jinsi, yoshi, psixologik xususiyatlarini aniqlash kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan diagnostik vazifalar ekspertlar oldiga, ixtiyoriy xatshunoslik obyektiga nisbatan identifiatsion vazifalar bilan birga yoki alohida, mustaqil holda qo‘yilishi mumkin.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.